



## “COMPUTER SCIENCE AND ENGINEERING TECHNOLOGIES”

International scientific and technical conference on October 14-15, 2022.

Web: <http://journal.jbnuu.uz/>

### 5-SHO‘BA

### TEXNOLOGIYALAR VA BARQAROR RIVOJLANISH

## UMUMTA’LIM MAKtablARI O‘QUVCHILARIDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHDA PISA DASTURLARINING ROLI

**p.f.n., dots. Anarkulova Gulnoz Mirzaxmatovna**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

[g.anarkulova.timi@mail.ru](mailto:g.anarkulova.timi@mail.ru)

**G‘ulomova Muxarram**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada umumta’lim maktablarida “Texnologiya” fanini o‘qitish orqali o‘quvchilarda kreativlik fikrlashni shakllantirishga qaratilgan ta’lim dasturlarini tuzish muammolari. Halqaro PISA testlari va ularni o‘quvchining hayotga tayyorlangan darajasini aniqlashdagi roli yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, kreativ fikrlash, kasbiy yo‘nalganlik, PISA testlari.

Respublikamiz iqtisodiyotida va ta’limdagi islohatlar uzlusiz ta’limning asosiy bo‘g‘inlaridan hisoblangan umumta’lim maktablarida ta’lim va tarbiya ishlari mazmuni va usullarini, shu jumladan, mehnatga o‘rgatish sohasini modernizatsiya qilishni talab qiladi. Jamiatga savodli, kreativ fikrlaydigan, professional bilimga, kerakli malakaga va mehnat ko‘nikmalariga ega bo‘lgan yoshlар kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6108-sон farmoni hamda “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qabul qarorida ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

- 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab umumta’lim muassasalari bitiruvchilar o‘z iqtidori va qiziqishlariga mos kasbni tanlab olishi, mehnat



## "COMPUTER SCIENCE AND ENGINEERING TECHNOLOGIES"

International scientific and technical conference on October 14-15, 2022.

Web: <http://journal.jbnuu.uz/>

bozorida munosib o‘rnini topishi, kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi uchun «Kasbga yo‘naltirish tizimi» joriy etilsin.

- 7-sinfdan boshlab o‘quvchilar o‘rtasida interaktiv so‘rovnomalar o‘tkazsin, kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishini aniqlasin va ularning ma’lumotlar bazasini yaratsin;

- 7-sinf o‘quvchilari uchun har oyda bir marta «Kasblar olamiga sayohat» mavzusida maxsus kurslar olib borsin;

- 8-sinf o‘quvchilari uchun har chorakda kamida bir marotaba «Mening kelajakdagi kasbim» mavzusida seminar-treninglar olib borsin hamda o‘quvchilarni kelajakda egallamoqchi bo‘lgan kasblarga yo‘naltirsin;

- 9-sinf o‘quvchilarining kasbiy moyilligi bo‘yicha o‘tkazilgan pedagogik-psixologik tashxislar natijalari asosida kelgusida aniq ishchi kasblar bo‘yicha kasb-hunar maktablarida ta’lim olishi mumkin bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borsin[1].

Zamonaviy shaxsni tarbiyalash ko‘p qirrali bo‘lib, u ulkan mehnat, kuch, iroda va tirishqoqlikni talab qiladigan katta hajmdagi mehnat bilan bog‘liq. Shaxsning yaxlit shakllanishini mehnatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Umumta’lim maktabi yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash muammolarini hal qilib, uning ishining xususiyatlarini belgilaydi. Zamonaviy ta’lim har bir bolaning rivojlanishini, ta’limning barcha bosqichlarida uning jismoniy va intellektual resurslarini safarbar qilishni ta’minlaydi. Ta’lim sohasidagi strategiyaning o‘zgarishi o‘quvchilarni texnologik tayyoragarlik muammosini dolzarb qiladi. “Texnologiya” ta’lim sohasi sifatida inson tarbiyasi va rivojlanishi tizimining 260AMDARD bo‘g‘iniga aylanishi kerak. Maktab o‘quvchilarda asosiy hayotiy ehtiyojga bo‘lgan munosabatni, uning ijtimoiy ahamiyatini tushunishni tarbiyalashi kerak.

Aynan umumta’lim maktablarida “Texnologiya” fani bo‘yicha mashhg‘ulotlarda o‘quvchining kreativ fikrashi shakllantirish imkoniyatlari ko‘proq. Buning uchun umumta’lim maktablarida “Texnologiya” fanining mazmuni nafaqat mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga mos kelishi kerak, balki yaqin kelajakda, maktab yoshlari haqiqiy mehnat hayotiga tayyorlovchi baza bo‘lib xizmat qilishi lozim. Hozirda ilm -fan asoslarini biladigan, lekin uni amalda, kasbiy faoliyatda, hatto undan ham kattalar hayoti bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda qo‘llay olmaydigan yoshlar soni ortib bormoqda.

O‘smirlarning kasbiy yo‘nalganligi, kreativligi, individual shaxsiy



## “COMPUTER SCIENCE AND ENGINEERING TECHNOLOGIES”

International scientific and technical conference on October 14-15, 2022.

Web: <http://journal.jbnuu.uz/>

xususiyatlari, o‘quvchilarni turli xil mehnat faoliyatiga jalb qilish uchun muayyan shart -sharoitlarni yaratish, mehnatga rag‘batlantirish vositalarini tanlashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Halqaro PISA testlari xuddi shu muammolarni amaldagi yechimi sifatida ta‘lim tizimiga kiritillmoqda. Umumta‘lim maktablari o‘quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo‘ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta‘lim tizimining bu o‘zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

**PISA (inglizcha- Programme for International Student Assessment)** – turli davlatlarda 15 yoshli o‘quvchilarning savodxonligini (o‘qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi dastur. Bu dastur 3 yilda bir marotaba o‘tkaziladi.

Halqaro PISA testlari dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo‘llanilgan. Bu dastur bo‘yicha har uch yilda o‘quvchilarning bilimini baholash maqsadida sinovlar o‘tkaziladi. Hozirgi kungacha yevropa mamlakatlari makktab tizimida jami 7 marta (2000, 2003, 2006, 2009, 2012, 2015 va 2018 yillar) PISA dasturi bo‘yicha testlar o‘tkazilgan bo‘lib, 261amdar sinovlar 2021 yilda bo‘lishi rejalashtirilgan. Natijalar doimiy ravishda tahlil etilib samaradorlik ko’rsatkichlari aniqlanib borilmoqda.

Lekin bu dasturdan qatnashishdan maqsad testlarni o‘tkazish yoki o‘quvchilarni testga tayyorlash emas, o‘quvchilarimizda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish raqobatbordosh kadrlarni yaratish uchun mustahkam zamin yaratish hisoblanadi.

So‘nggi yillarda IHTT Ta’lim tadqiqoti va innovatsiyalar markazi (CERI) o’n bir davlatda kreativ va tanqidiy fikrlashni o’rgatish va baholash usullari borasida tadqiqot olib bordi. CERI 2015-yildan beri 11 mamlakatda ijodiy fikrlashni o’qitish va baholashni o’rganib kelmoqda.

CERI boshlang’ich nuqta sifatida Lucas, Claxton va Spencerning Angliyadagi tajribasini olgan holda, boshlang’ich va o’rta ta’limda ijodiy va tanqidiy fikrlashni sinf xonalarida o’rgatish uchun yangi o’qituvchi konseptual ramkasini yaratdi. Shuningdek, CERI o’qituvchilarini qo’llab- quvvatlash maqsadida tanqidiy va ijodiy fikrlash bo‘yicha OECD rubrikalarini shakllantirgan.

Xalqaro mutaxassislar bola shahsida ijodiy fikrlashni «yangi g’oya va



## “COMPUTER SCIENCE AND ENGINEERING TECHNOLOGIES”

International scientific and technical conference on October 14-15, 2022.

Web: <http://journal.jbnuu.uz/>

yechimlarni berish» deb ta’riflaganlar. Uning 6 jihatni bor:

- 1) mos tajriba va ma'lumotni ta'riflash, sezish, kuzatish, 262AMDARD bo'lish;
- 2) tadqiq qilish, qidirish va g'oyalarni ishlab chiqish;
- 3) bog'liqliklarni qurish, sohalararo nuqtayi nazarni tatbiq etish;
- 4) noodatiy yoki jasur g'oyalar bilan o'ynash;
- 5) yangi mahsulotni tasavvur qilish, ifodalash, ishlab chiqish, kashf qilish;
- 6) yechimning yangiligini tan olish.

Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatlari hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarini shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir (Lucas va Spencer, 2017 [2]). Bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari «XXI asr» ko'nikmalariga ega ishchilarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko'maklashadi.

Mazkur tadqiqotlar olib borilishining asosiy maqsadi bugungi o'quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo'lмаган sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishga tayyorlash. O'quvchida kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi.

Demak mактабда kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi, balki mакtab yoshlar uchun o'z qobiliyat va ko'nikmalarini, shu jumladan ijodiy talantlarini kashf etishda muhim ahamiyatga ega. Aynan xalqaro **PISA dasturlarini qollash bilan oquvchilarda kreativlikni shakllangan darajasini aniqlash orqali ularni qobiliyatiga qarab kelgusida kasbni to'gri tanlashga yonaltirish mumkin.**

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING “O'ZBEKISTONNING YANGI TARAQQIYOT DAVRIDA TA'LIM-TARBIYA VA ILM-FAN SOHALARINI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA” 2020-YIL 6-NOYABRDAGI PF-6108-SON (LEX.UZ.)
2. Sharifxodjayev U., Norboyeva D. PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash doirasi (PISA 2021 Creative Thinking Framework (Third Draft))/ Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti/ Tarjima - M. Maxsudov/ Xalq ta'limi vazirligi - Toshkent, 2020-yil, 76 bet.